

4. OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti)
<https://www.oecd.org/>
5. FAO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qishloq Xo‘jaligi va Oziq-ovqat Tashkiloti) <https://www.fao.org/>
6. Malikov, N., Qineti, A., Pulatov, A., & Shukurov, S. (2016). The role of agriculture in economic development of Uzbekistan (pp. 184-192).
7. World Bank – Green Investments <https://www.worldbank.org/>

YASHIL IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN YO‘NALISHLAR

Xakimjanova Aziza Baxromjon qizi⁵⁵

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha olib borayotgan siyosiy, institutsional va sektoral islohotlari tahlil qilinadi. Energetika, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, chiqindilarni boshqarish va transport sohalarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar asosida mamlakatning ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan strategik yondashuvlari yoritilgan. Shu bilan birga, mavjud tizimli muammolar, moliyaviy va texnologik cheklovlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, suv resurslari, fiskal islohotlar, energiya samaradorligi, yashil moliya.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini tezlashgan bo‘lsada, bu o‘sish ko‘pincha atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv tanqisligi, atmosferaning ifloslanishi, cho’llanish, tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi kabi ekologik muammolar uzoq muddatli rivojlanishga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shuning uchun ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida muvozanatga erishish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, global kelishuvlar va xalqaro tashabbuslarning talablari ham mamlakatlar oldiga yangi majburiyatlar qo‘ymoqda. Bu esa iqtisodiy yondashuvlarga qayta nazar tashlash, mavjud modellarni tanqidiy baholash va yangi yo‘nalishlar asosida rivojlanish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Aynan shu sharoitda O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” hamda “Yangi O‘zbekiston-2030” strategik dasturi doirasida

⁵⁵ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo‘nalishi magistranti, e-mail: khakimjanovaaziza@gmail.com

belgilangan vazifalar ushbu yo‘nalishda muhim bosqich bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu strategik hujjalarni iqtisodiy islohotlarni ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni belgilab berdi.

An’anaviy iqtisodiyot modeli ko‘pincha iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlariga – YaIM, sanoat hajmi va iste’mol darajasiga asoslanadi, biroq bu model ko‘pincha ekologik va ijtimoiy zararlarni hisobga olmaydi. Aksincha, yashil iqtisodiyot modeli iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ustuvorliklar o‘rtasida muvozanatni ta’minlashga qaratilgan. Bu yondashuv barqaror rivojlanishdan farqli o‘laroq, amaliy vositalar – ekologik soliq, yashil investitsiyalar va energiya samaradorligi orqali iqtisodiyotni ekologik muvofiqlashtirishga urg‘u beradi.⁵⁶

Xalqaro tajribadan misol sifatida, Daniya yashil texnologiyalarni eksport qilish orqali nafaqat o‘z iqtisodiyotini diversifikatsiya qilmoqda, balki xalqaro imijini ham mustahkamlamoqda.⁵⁷ Xitoy esa 2016-yilda dunyoda birinchi bo‘lib “yashil moliyalashtirish” tizimini joriy etgan bo‘lib, 2030-yilgacha karbonat chiqindilarining cho‘qqisiga erishish va 2060-yilga kelib ularni neytrallashtirish maqsadini qo‘ygan.

1-jadval.

Yashil iqtisodiyot siyosati ko‘rsatkichlari bo‘yicha mamlakatlararo tahlil⁵⁸

Mamlakat	Energetikadagi qayta tiklanuvchi energiya ulushi	Asosiy muammolar	Samarali choralar
Shvetsiya	54%	Infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi	Qayta tiklanuvchi energiyani targ‘ib qilish
Germaniya	42%	CO ₂ chiqindilarini tartibga solish	Quyosh va shamol energiyasini rivojlantirish
O‘zbekiston	5%	Moliyalashtirishning yetarli emasligi, qonunchilik zaifligi	Qayta tiklanuvchi energiya sohasida dastlabki qadamlar

⁵⁶ Sangirova U. va boshq. Green economy development in the Republic of Uzbekistan // BIO Web of Conferences, 2024. – Vol. 130. – Art. No. 08028.

⁵⁷ Adkhamova D. An Assessment of Uzbekistan’s Progress Towards Green Economy. MSc thesis. – Istanbul: Istanbul Technical University, 2024.

⁵⁸ Tadjiboev Z.M., Haydarov H., Achilov A. va boshq. Current environmental risks and development directions of green economy in Uzbekistan -2024.

O‘zbekiston “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” doirasida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida tub islohotlarni boshladi. Bu islohotlar sektorlar kesimida resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashuvni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda olib borilmoqda:

Yashil iqtisodiyotda eng muhim o‘rin energetika sohasiga tegishlidir. O‘zbekistonda 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olingan umumiy quvvatni 15 gigavattga yetkazish, shuningdek, elektr energiyasi ishlab chiqarishining kamida 30 foizini shu manbalardan ta’minlash maqsad qilingan.⁵⁹ Shu yo‘nalishda quyosh va shamol elektr stansiyalari barpo etilmoqda, mavjud issiqlik elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish choralar ko‘rilmoxda. Energiya intensivligini kamaytirish orqali sanoat tarmoqlarida ham ekologik yukni kamaytirish rejalashtirilgan.

2-jadval. O‘zbekistonda yakuniy energiya iste’moli tuzilmasi (2024)⁶⁰

Soha	Ulushi (%)
Binolar	50%
Sanoat	22%
Transport	20%
Boshqalar	8%

Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini tejash dolzarb masalaga aylangan. Shu bois, tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish kengaytirilmoqda. Maqsad —1 million hektar maydonda suv tejovchi sug‘orish tizimlarini qo‘llash.⁶¹ Bundan tashqari, Orolbo‘yi hududlarida cho‘l hududlarni rekultivatsiya qilish, o‘rmonzorlarni kengaytirish va ko‘chat ekish ishlari amalga oshirilmoqda.

Maishiy va sanoat chiqindilarini boshqarish bo‘yicha ham muhim qadamlar tashlanmoqda. 2030-yilgacha qayta ishlanadigan maishiy chiqindilar ulushini 65 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Sanoat korxonalarida ifloslantiruvchi gazlar chiqindilarini kamaytirish uchun zamonaviy filtrlash texnologiyalari va monitoring tizimlari joriy etilmoqda. Ayrim erkin iqtisodiy zonalarda ekologik standartlarga rioya qilinmagani oqibatida yuzaga kelgan ifloslanish holatlari hukumat tomonidan nazoratga olingan.⁶²

⁵⁹ Khamdamov Sh.J., Kakhramonova U., Usmanov A.S. Green Economy as a Driver of Sustainable Economic Growth in Uzbekistan // Insurance Market of Uzbekistan, 2024. – Vol. 1(8). – B. 64.

⁶⁰ Challenges and Breakthroughs in the Green Economic Transformation of Double Landlocked Countries: A Study on Uzbekistan’s Sustainable Development Path

⁶¹ Nazarov Kh. Concept of Transition to “Green Economy” in Uzbekistan // International Journal of Education, Social Science & Humanities, 2023. – Vol. 11(5). – B. 417.

⁶² Tadjiboev Z.M., Mirzakarimova M.M. va boshq. Current state, problems and solutions of the green economy policy in Uzbekistan // Journal of Hunan University (Natural Sciences), 2024. – Vol. 51(12). – B. 146–152.

Shaharlarda ekologik muvozanatni tiklash maqsadida yashil maydonlar ulushini 30 foizga yetkazish, shuningdek, har yili 200 million tup ko‘chat ekish choralari ko‘rilmoxda. Orol dengizi tubida yashil belbog‘lar barpo etilmoqda. Bu ishlar nafaqat iqlim barqarorligiga, balki aholi salomatligi va turmush sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.⁶³

Transport sohasida ham ekologik islohotlar boshlanmoqda. Elektromobillar, gibridd dvigatelli avtomobillar va ekologik xavfsiz jamoat transporti tarmoqlarini rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Bu chora-tadbirlar yoqilg‘i iste’molini kamaytirish, shahar havosining sifati va transport infratuzilmasining barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Elektromobil zaryadlash stansiyalarining sonini oshirish bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar rejalashtirilmoqda.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish borasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo‘lsada, bu jarayon bir qator tizimli muammolar va cheklovlar bilan ham to‘qnash kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlar, milliy strategik hujjatlar va amaliy holatlar tahlili quyidagi asosiy muammolarni ko‘rsatmoqda:

- Ekologik fiskal siyosatning sustligi. O‘zbekistonda ekologik soliq tizimi hali shakllanmagan, fiskal imtiyozlar ekologik mezonlarga bog‘lanmagan.
- Yashil moliyalashtirish mexanizmlarining cheklanganligi. Yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan maxsus fondlar, yashil obligatsiyalar va ekologik investitsiya platformalari deyarli mavjud emas. Bu esa xususiy sektor va xalqaro donorlarning ishtiropini cheklamoqda.
- Tashkiliy muvofiqlashtirishda uzilishlar. Yashil iqtisodiyot bo‘yicha strategiyalar bo‘lsada, ularni amalga oshiruvchi idoralararo mexanizmlar zaif. Masalan, ekologik standartlar, energiya samaradorligi va qishloq xo‘jaligidagi barqaror amaliyotlar bo‘yicha sektorlararo hamkorlik yetarli emas.
- Texnologik bazaning sustligi. Sanoat va infratuzilmalarda zamонавијекологик texnologiyalarning yetishmasligi, energiya tejamkor uskuna va monitoring tizimlarining qamrovi pastligi mavjud muammolardan biridir.
- Kadrlar va ilmiy salohiyat yetishmasligi. Yashil iqtisodiyotga oid mutaxassisliklar, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari va universitetlarda tayyorlanayotgan kadrlar soni cheklangan, bu esa tashabbuslarning amaliyotda joriy etilishini sekinlashtiradi.

Bu muammolarni yechish uchun quyidagi takliflarni ko‘rib chiqish mumkin:

⁶³ Abbasi A., Saidov R., Musaev D., Akhunova Sh. Green Economy: Is It a Path to Sustainable Economic Growth for Uzbekistan? // British Journal of Global Ecology and Sustainable Development. – 2023. – Vol. 15. – B. 129–132.

- Yashil faoliyatni qo‘llab-quvvatlash uchun differensial soliqlar, ekologik subsidiyalar va “yashil” korxonalar uchun preferensiylar joriy etilishi kerak. Bu yondashuv Xitoy tajribasida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan.⁶⁴
- Yashil fondlar, davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish modellarini joriy etish va xalqaro grantlar bilan ishslash salohiyatini oshirish zarur. Yashil obligatsiyalar chiqarish bo‘yicha normativ-huquqiy baza ishlab chiqilishi lozim.
- Yashil iqtisodiyot bo‘yicha barcha vazirlik va idoralar faoliyatini muvofiqlashtiradigan markazlashtirilgan platforma tashkil etilishi maqsadga muvofiq.
- Qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishslash, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va innovatsion mahsulotlarga soliq imtiyozlari berilishi lozim.
- Universitetlar va ilmiy muassasalarda yashil iqtisodiyot yo‘nalishida mutaxassisliklar ochish, mavjud kadrlar malakasini oshirish uchun xalqaro hamkorlik dasturlarini kengaytirish zarur.
- Aholining yashil iqtisodiyot mohiyati haqida xabardorligini oshirish uchun mediada izchil targ‘ibot, fuqarolik jamiyati ishtirokidagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha olib borilayotgan siyosiy va institutsional islohotlar global ekologik vaziyatga mos ravishda shakllanmoqda. Mamlakatda bu boradagi asosiy strategik hujjatlar – “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” va “Yangi O‘zbekiston – 2030” – iqtisodiy rivojlanish modelini ekologik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Energiya, suv xo‘jaligi, chiqindilarni boshqarish, shaharsozlik va transport sohalaridagi tub o‘zgarishlar ushbu yondashuvning amaliy ifodasıdir.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tizimli muammolar va imkoniyatlardan iborat murakkab yo‘ldir. Ayniqsa, ekologik soliq va fiskal tizimning rivojlanmaganligi, yashil moliyalashtirish infratuzilmasining yetishmasligi, texnologik modernizatsiya va kadrlar salohiyatidagi bo‘sliqlar mazkur jarayonning asosiy to‘sirlari sifatida ko‘zga tashlanadi. Bunday sharoitda sektorlararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish, xalqaro hamkorlikni faollashtirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali mavjud salohiyatni to‘liq safarbar qilish zarur.

Shuningdek, aholining ekologik xabardorligini oshirish, yashil qadriyatlarni jamiyat ongiga singdirish va fuqarolik jamiyati ishtirokini kuchaytirish orqali yashil iqtisodiyot nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy-mafkuraviy jihatdan ham

⁶⁴ Tadjiboev Z.M., Mirzakarimova M.M. va boshq. Current state, problems and solutions of the green economy policy in Uzbekistan // Journal of Hunan University (Natural Sciences). – 2024. – Vol. 51, No. 12. – B. 146–152.

jamiyat hayotiga integratsiya qilinishi mumkin. Bu esa nafaqat O‘zbekistonning barqaror rivojlanishini, balki kelajak avlodlar uchun qulay hayot muhitini yaratishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Adkhamova D. *An Assessment of Uzbekistan’s Progress Towards Green Economy*. MSc thesis. – Istanbul: Istanbul Technical University, 2024. <https://polen.itu.edu.tr:8443/server/api/core/bitstreams/2501a25e-3cb7-4c5e-b2f3-e6952f6d890e/content>
2. Sangirova U. va boshq. *Green economy development in the Republic of Uzbekistan* // BIO Web of Conferences. – 2024. https://www.bio-conferences.org/articles/bioconf/abs/2024/49/bioconf_bft2024_08028/bioconf_bft2024_08028.html
3. Rakhmonov B.Sh. *Securing sustainable development through green economy in Uzbekistan* // Pedagogical Cluster: Journal of Pedagogical Developments. – 2024. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/446>
4. Tadjiboev Z.M., Mirzakarimova M.M. va boshq. *Current state, problems and solutions of the green economy policy in Uzbekistan* // Journal of Hunan University (Natural Sciences). – 2024. <http://johuns.org/index.php/JHUNS/article/view/98>
5. Nazarov Kh. *Concept of Transition to “Green Economy” in Uzbekistan: Content and Essence* // International Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. <https://staff.tiame.uz/storage/users/600/articles/Zih6MKyHmsv4i5TzmMBMgKYFp3VePfbS7cnoqsJt.pdf>
6. Khamdamov Sh.J., Kakramonova U., Usmanov A.S. *Green Economy as a Driver of Sustainable Economic Growth in Uzbekistan* // Insurance Market of Uzbekistan. – 2024. <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/157/188>
7. Butaboev M., Akhunova Sh. *Uzbekistan’s Transition Strategy to a Green Economy and Its Significance* // Res Militaris. – 2023. https://www.researchgate.net/profile/Shokhistakhon-Akhunova/publication/375121217_Uzbekistan's%20Transition%20Strategy%20to%20a%20Green%20Economy%20and%20Its%20Significance/links/654223763cc79d48c5c5f9bd/Uzbekistans-Transition-Strategy-to-a-Green-Economy-and-Its-Significance.pdf
8. Tadjiboev Z.M., Haydarov H., Achilov A. va boshq. *Current environmental risks and development directions of green economy in Uzbekistan* -2024.
9. Akhunova Sh., Nosirova M. *Sustainable Economic Expansion: Unlocking Uzbekistan’s Green Economy Potential* // Web of Humanities, 2024. <http://webofjournals.com/index.php/9/article/view/1144>